

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Son 4. Jild 4.

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 4 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолiddиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудир;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Qurbonov Murodjon Dehqonboy o'g'li</i> "KASHKULI SALIMIY" ASARIDA USMONIY HUKMDORLAR TARIXINING YORITILISHI.....	12-17
<i>Ismoilova Diyoraoy Xursandjon qizi</i> AMIR NASRULLOH DIPLOMATIYASI	18-23
<i>Tursunov Farrux Fulomovich</i> ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДАГИ ТОЖИКЛАРГА ХОС УРФ-ОДАТ ВА МАРОСИМЛАР	24-28
<i>Usmonaliyev Isroiljon Ibrohimjon o'g'li</i> FARG'ONA VODIYSIDA "O'ZBEK" ETNONIMINING TARQALISHI	29-34
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> YEVIROOSIYO SHORVADOR QABILALARINING FARG'ONA VODIYSIGA KIRIB KELISHI.....	35-40
<i>Esanova Nilufar Pulatovna</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA YENGIL SANOAT SOHASIDAGI O'ZGARISHLAR	41-46
<i>Abduraхимова Сабоҳат Эргаш қизи</i> БУХОРО АМРЛИГИ ДАВРИДА ЧИРОҚЧИ ТУМАНИНИНГ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ТАРИХИ	47-53
<i>Toshturov Shuxrat</i> MUSTAQILLIKKACHA BO'LGAN DAVRDA NAVOIY VILOYATI SANOAT KORXONALARINING EKOLOGIK MUHITGA TA'SIRI	54-60
<i>Kanimkulov Olimjon Sheraliyevich</i> AKADEMIK YAHYO G'ULOMOV FAOLIYATI HAQIDA QAYDLAR ("XORAZMNING SUG'ORILISH TARIXI" ASARI MISOLIDA).....	61-65
<i>Begniyazova Gozzal Allambergenovna</i> QORAQALPOQ XALQ ERTAKLARINING YIG'ILISHI VA NASHR QILINISHI.....	66-70

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Султонов Баходир Файзуллаевич, Тураева Гулизахро Каххоровна, Норбўтаев Бахтиёр Абдурахимович</i> СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ДОНЛИ ЭКИНЛАР ХОСИЛДОРЛИГИНИНГ 2024-2027 ЙИЛГАЧА БЎЛГАН ПРОГНОЗ ПАРАМЕТРЛАРИ.....	71-78
<i>Abdiganieva Zarapshan Salievna</i> YANGI O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	79-85
<i>Otaxonova Odinaxon Inomovna</i> QORAMOLCHILIK MAHSULOTLARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA OZUQA BAZASINI YAXSHILASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	86-94
<i>Рахимов Ойбек Бахтиёрович</i> СУҒУРТА ХИЗМАТЛАРИ БОЗОРИДА МАРКЕТИНГ ФАОЛИЯТИНИ РЕЖАЛАШТИРИШ АСОСЛАРИ	95-99
<i>Хушмурадов Оман Намозович</i> СУВ ХЎЖАЛИГИНИ БОШҚАРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ	100-110

<i>Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li, Karabayev Rustam Zafarovich</i> BULUTLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BIZNES JARAYONLARNI TASHKIL ETISH YO'LLARI	111-125
<i>Фаттахова Муниса Абдухамитовна</i> ПОНЯТИЕ И ПУТИ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ КРЕДИТНЫМ ПОРТФЕЛЕМ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ	126-133
<i>Isayev Jahongir Muzaffarovich</i> SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TIZIMINI TA'MINLASH IQTISODIY МЕХАНИЗМНИНГ АСОСИЙ YO'NALISHI SIFATIDA	134-140
09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
<i>Tilavova Umida Qahramonovna</i> RAQAMLI JAMIYATLAR TIZIMIDA INFORMATSION ETIKA KATEGORIYA VA ТАМОЙИЛЛАРИНИНГ АНАМИЯТИ	141-147
<i>Yulchiyev Avazbek Maxamadjonovich</i> IJTIMOIY TEXNOLOGIYALAR HAQIDAGI G'OYALARNING SHAKLLANISH EVOLYUTSIYASI	148-154
<i>Каримова Гулчеҳра Абдукаримовна</i> ДУНЁ ДИНЛАРИ ВА ТАЪЛИМОТЛАРДА ОТАЛИКНИ ТУШУНИШ ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ	155-163
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i> ISLOM FALSAFASIDA DALILLASH VA VAHS YURITISH USULI ZAMONAVIY ARGUMENTLASH NAZARIYASI TALQINIDA	164-168
<i>Muminov Nozim Naimovich</i> THE PHENOMENOLOGICAL APPROACH IS THE KEY TO UNDERSTANDING THE SPREAD AND TRANSFORMATION OF SUFISM IN THE WEST	169-175
<i>Турсунов Мухиддин Болтаевич</i> СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЁЖИ	176-180
<i>Mamarasulov Ulug'bek Umirzoqovich</i> SPORT TURLARINING FALSAFIY-ESTETIK TANLILI	181-184
10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
<i>Исанова Феруза Тулқиновна</i> ЎЗБЕК ТИЛИДА ХАЛҚАРО ҲУҚУҚ СОҲАСИГА ОИД ЛЕКСИК БИРЛИКЛАР ВА УЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ	185-191
<i>Петрухина Наталья Михайловна</i> КОРАНИЧЕСКИЕ МОТИВЫ В ТВОРЧЕСТВЕ А.С.ПУШКИНА И ЕГО СОВРЕМЕННИКОВ	192-197
<i>Исаров Оман Рисалиевич</i> ЎЗБЕК ВА ИНГЛИЗ ТИЛЛАРИДА ТАКСИС КОНВЕРБИАЛ ВЕРБАЛИЗАЦИЯСИ	198-205
<i>Родина Ирина Витальевна</i> АНТИНОМИЧЕСКАЯ ПАРА «МЕСТЬ» И «ПРОЩЕНИЕ» В ПОВЕСТИ-СКАЗКЕ Л. БОРОДИНА «ГОД ЧУДА И ПЕЧАЛИ»	206-211
<i>Ataeva Gulchekhra Bakhtiyorovna</i> THE ROLE OF IDIOMS IN ENHANCING BUSINESS COMMUNICATION: A STUDY ON THE USAGE OF IDIOMS IN BUSINESS LETTERS	212-220

<i>Erkinova Marxobo</i> ASSOTSIATIV MAYDON HOSIL QILISHDA LINGVISTIK OMILLARNING O'RNI	221-229
<i>Gulyamova Shahzoda Baxtiyor qizi</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI MATNLARNING SINTAKTIK STRUKTURASI VA PRAGMATIK XOSLANISHI	230-234
<i>Batyrkhanova Madina Oybekovna</i> THE SOMATIC CULTURAL CODES IN THE STUDY OF ENGLISH, RUSSIAN AND UZBEK PHRASEOLOGISMS	235-244
<i>Aslonov Shahram Sherzod ugli, Saidova Marjona Abdimutal qizi</i> PECULIARITIES OF TRANSLATION OF POLITICAL TEXTS IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION	245-250
<i>Olimova Dilafruzxon Baxtiyorjon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SUBYEKTIV VAHONING IFODALANISHI	251-254
<i>Bobojonov Dilshod Jumaqul o'g'li</i> INGLIZ VA O'ZBEK GAZETA SARLAVHALARIDA PUBLISISTIK USLUB BELGILARINING NAMOYON BO'LISHI	255-260
<i>Абдуллаева Нилуфар Рамазоновна, Шаймарданова Мухлиса Усмановна</i> СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА “РАСТЕНИЕ” В СОПОСТАВЛЯЕМЫХ ЯЗЫКАХ	261-266
<i>Хайруллоева Сitora Lutfulloevna</i> PSYCHOLOGICAL NOVELS OF US AND THE DEVELOPMENT OF PSYCHOLOGYSMS	267-272
<i>Qudratova Muxiba Kamolovna</i> “LYUIS KERROLLNING ALISA MO' JIZALAR MAMLAKATIDA ASARIDAGI HAYVON OBRAZLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI”	273-279
<i>Убоженко Анна Станиславовна</i> ОСОБЕННОСТИ ТЮРКСКИХ ЗАИМСТВОВАНИЙ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ	280-285
<i>Тухтаева Наргисхон Исамутдиновна</i> ОТРАЖЕНИЕ ДУХОВНОГО УПАДКА ОБЩЕСТВА И ЕГО ПОСЛЕДСТВИЙ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ	286-292
<i>Gulnora Xolmurodova Sattorovna, Bo'ronova Mekkamtosh Xoliqulovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK LISONIY MANZARASIDA MAQOLLARNING O'RNI	293-297
<i>Алибаева Лола Намазовна</i> ЖЕНСКИЕ ОБРАЗЫ В РАССКАЗАХ Л. ПЕТРУШЕВСКОЙ	298-303
<i>Eshqurbonova Aziza Bozor qizi</i> DIALOGIK NUTQDA SAVOLLARNING IFODALANISHI	304-308
<i>Norova Rahima Fayzulloevna</i> O'ZBEK VA INGLIZ ADABIY ERTAKCHILIGIDAGI SEHRLI VOSITALARNING QO'LLANISHIDA O'XSHASH JIHATLAR	309-316
<i>Egamberdiyeva Iroda Abdurahimovna</i> TRANSLATIONS OF HISTORICAL WORKS INTO ENGLISH	317-323
<i>Axmedova Adolat Ravshan qizi</i> GASTRANOMIYA TUSHUNCHASI HAMDA GASTRANOMIK REKLAMA MATNLARI	324-330

<i>Asqarova Madina Boymurod qizi</i> KORPUS LINGVISTIKASIDA MATN ANNOTATSIYASINING LINGVISTIK MUAMMOLARI	331-334
--	---------

<i>Калниязов Есемурат Шамшетович</i> ГОСТЕВОЙ ЭТИКЕТ И СИСТЕМА ЦЕННОСТЕЙ	335-342
---	---------

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Bahodir To'raev</i> HUQUQIY MADANIYAT VA HUQUQIY TARBIYANING DEMOKRATIK DAVLAT RIVOJLANISHIDAGI ROLI	343-351
---	---------

<i>Турсоатов Содиқ</i> РАҒБАТЛАНТИРУВЧИ ҲУҚУҚИЙ СИЁСАТ ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ	352-357
--	---------

<i>Хидиров Фурқат Шукуруллаевич</i> МАҲАЛЛА ҲУҚУҚ-ТАРТИБОТ МАСКАНИ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ТАРТИБИНИНГ АСОСИЙ ВАЗИФАЛАРИ	358-363
---	---------

<i>Рахимбаев Уткир Файзуллаевич</i> ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ КРИТЕРИЕВ ОЦЕНКИ ИНФРАСТРУКТУРЫ И СЕРВИСА ДЛЯ ТУРИСТОВ	364-372
---	---------

<i>Турсынбаев Азизбек Халмурзаевич</i> МЕЖВЕДОМСТВЕННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ КАК СПОСОБ РЕАЛИЗАЦИИ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТИ	373-377
--	---------

<i>Yakubov Abduraxmon Turayevich</i> TA'LIM HUQUQINING HUQUQIY SAVODXONLIKNI AMALGA OSHIRISHDAGI O'RNI	378-382
---	---------

<i>Rasulov Salimbek Baxtiyor o'gli</i> YEVROPA KENGASHINING KORRUPSIYA UCHUN JINOIY JAVOBGARLIK BO'YICHA KONVENSIYASI – KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING ZAMONAVIY XALQARO HUQUQIY ASOSLARIDAN BIRI SIFATIDA	383-387
---	---------

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Хайров Расим Золимхон угли</i> АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА	388-395
--	---------

<i>To'rayev Panji To'xtayevich</i> OLIY TA'LIM MUASSASASIDA KURASHCHILARNI PSIXOLOGIK JIHATDAN TAYYORLASH	396-400
---	---------

<i>Xushnazarova Ma'mura Nodirovna</i> TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDA IJTIMOIIY FAOLLIKNING AHAMIYATI	401-406
--	---------

<i>Yuldasheva Sayyora Aliaskarovna</i> TA'LIM TIZIMIDA INGLIZ TILINI INTEGRATSION O'QITISH	407-411
---	---------

<i>Turdimurodov Dilmurod Yo'ldoshevich</i> SPORT MASHG'ULOTLARI JARAYONIDA PEDAGOGIK NAZORATNING AHAMIYATI	412-418
---	---------

<i>Абдувахобов Искандер, Гизатулина Ольга Ивановна</i> ОРГАНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В СМЕШАННЫХ СРЕДАХ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ВУЗА	419-426
<i>Назарова Озода Шавкатовна</i> СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ВЫСШЕМ УЧЕБНОМ ЗАВЕДЕНИИ	427-432
<i>Pirnazarova Sevara Doniyor qizi</i> OLIQ O'QUV YURLARIDA XORIJIY TILNI O'QITISHDA O'YIN USULLARINI QO'LLASH	433-438
<i>Ko'ziyeva Gulnoza Maxamadaliyevna</i> BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK SALOHİYATINI OSHIRISH METODIKASI	439-444
<i>Умирзокова Сурайё</i> ТАЛАБАЛАРИНИНГ КИНЕТИК ИНТЕЛЛЕКТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАСИ	445-451
<i>Olimova Nigora</i> MUVAFFAQIYATLI O'RGANISHDA SINFINI BOSHQARISH KO'NIKALARINING AHAMIYATI	452-463
<i>Nabiyeva Firuza Odil qizi</i> “ELEKTROMAGNETIZM” BO'LIMINI O'QITISHDA AMALIY MASHG'ULOTLARNING AHAMIYATI	464-471
<i>Sobirova Oygul Alimovna</i> BO'LAK MUSIQA O'QITUVCHILARIDA METODIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD HOLATINI TAHLILYI VAHOLASH	472-479
<i>Shermatov G'ulom Kaxxorovich</i> IMPROVING THE TECHNIQUE OF BADMINTON SPORTS TRAINING	480-486
<i>Shamirzayeva Zarifa Xudoyorovna</i> TALABALARDA KASBIY KO'NIKALARNI SHAKLLANISHIDA MIKROTA'LIM O'QITISH TEKNOLOGIYASINING SAMARALI JIHLTLARI	487-492
<i>Ziyadullayeva Dilafruz Xudayberdiyevna</i> O'SMIRLARDA YETAKCHILIK XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETINSIYAVIY FAOLIYATNING PEDAGOGIK ASOSLARI	493-498
<i>Muydinov Firuzjon Farxodjonovich</i> TIBBIY TA'LIM TALABALARIDA MEDIAKOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	499-505
<i>Egamberdiyeva Feruza Abdimannonovna</i> MULTIMEDIA TEKNOLOGIYALARIGA ASOSLANGAN DASTURIY TA'MINOTNI LOYIHALASH	506-510
<i>Худойбердиева Дурдона Баходир қизи</i> ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ОБУЧЕНИЯ В РАБОТЕ С ОДАРЕННЫМИ ДЕТЬМИ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА	511-516
<i>Курбонов Дониёрбек Кахрамонович</i> ОБУЧЕНИЕ ПОЭЗИИ С ПРИМЕНЕНИЕМ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ	517-524

Shamsiddinov G'iyos Xusniddin o'g'li, Jurayeva Feruza Baxtiyor qizi

IQTISODIYOT YO'NALISHI TALABALARIGA EKONOMETRIKA FANINI O'TISHNING

INTERAKTIV USULLARI 525-532

Эрназаров Алишер Эргашевич, Бекмурадов Зариф Хуррамович

ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИНИНГ МОДУЛЛИ ВА ЛОЙИҲАЛАШТИРИЛГАН ТУРЛАРИ ҲАМДА

АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ 533-539

Usmonaliyev Isroiljon Ibrohimjon o'g'li
Namangan davlat universiteti o'qituvchisi
Email: usmonaliyervisroiljon@gmail.com

FARG'ONA VODIYSIDA "O'ZBEK" ETNONIMINING TARQALISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek toponimining O'rta Osiyoga tarqalishi, o'zbeklarning kelib chiqishi, XIX asr boshlarida o'zbek urug'lari tarqalgan hududlarning tasnifi, Farg'ona vodiysiga shimoli-g'arbdan bo'lgan migratsiya jarayonlari haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Farg'ona vodiysi, o'zbek, hudud, atama, mintaqa, markaz, siyosiy hayot, hunarmand, chorvachilik, dehqonchilik.

Usmonaliyev Isroiljon Ibrokhimjon ugli
Teacher of Namangan state university

SPREAD OF THE ETHNONAME "UZBEK" IN THE FERGANA VALLEY

Abstract. this article describes in detail the spread of the Uzbek toponym to Central Asia, the origin of the Uzbeks, the classification of the regions where Uzbek clans spread in the early 19th century, and the processes of migration from the north-west to the Fergana Valley. information provided.

Keywords: Ferghana Valley, uzbek, region, term, region, center, political life, artisan, animal husbandry, farming.

Усмоналиев Исроилжон Иброхимжон угли
Преподаватель Наманганский государственный университет

РАСПРОСТРАНЕНИЕ ЭТНОИМЯ «УЗБЕК» В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ

Аннотация. В статье подробно описано распространение узбекского топонима в Среднюю Азию, происхождение узбеков, классификация регионов распространения узбекских родов в начале XIX века, а также процессы миграции с северо-запада на Ферганская долина. Информация предоставлена.

Ключевые слова: Ферганская долина, узбек, область, термин, регион, центр, политическая жизнь, ремесленник, животноводство, земледелие

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I4Y2024N04>

O'zbekistonning, umuman Markaziy Osiyo xalqlarining o'tmishi buyuk va yorqin bo'lganligi hammaga ma'lum. Mazkur mintaqa xalqlari qadim zamonlarda yaratgan yuksak madaniyat jahon sivilizatsiyasining muhim bir qismidir. Ushbu qadimgi madaniyat ildizlarini o'rganish, beqiyos madaniy yodgorliklarni, ilm-fan, san'at, me'morchilik sohalarida mumtoz asarlar yaratgan buyuk ajdodlarimiz merosini o'rganish nafaqat xalqning iftixorini uyg'otish uchun, balki buyuk o'tmish saboqlaridan buyuk kelajak yaratishda foydalanish uchun ham

zarurdir. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ko'rsatib o'tganidek, "Hech qachon unutmaylik, go'zal va betakror O'zbekiston barchamizniki ekan, uning taqdiri va kelajagi uchun barchamiz mas'ulmiz. Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyligimiz bor. Va men ishonaman, Xudo xohlasa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz ham albatta bo'ladi". Tarixni bilish esa eng avval xalq o'zining kimligini: xususan, o'zbek xalqi qayerdan kelib chiqqani; uning o'zagi qayerda va qaysi urug'lar, qabilalar, elatlar uning tarkibini tashkil qilganini, u qachon yagona xalq sifatida shakllanganini o'rganish va aniqlashdan boshlanadi. Bu muammo tarix fanining dolzarb masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi va ko'pdan buyon olimlarning aql-idrokini band etib keladi.[1]

Farg'ona vodiysida "o'zbek" etnonimining tarqalishi O'rta Osiyoning deyarli barcha hududlarida bo'lganidek XV – XVI asrlarga to'g'ri keladi. XIV asrning ikkinchi yarmidan boshlab asosan quyi Volga – Urolbo'yi havzalari – Orol dengizining shimoliy hududlari orasida shakllana boshlagan "o'zbek" siyosiy – etnik atamasi XV – XVI asrlar oralig'ida yanada keng ko'lamlilik kasb etib, Sirdaryoning quyi va o'rta oqimlarida muqimlashgan bo'lsa, XVI – XVII asrlarda esa Amudaryo – Sirdaryo oralig'i va unga tutash hududlarda ushbu etnik atamaning ta'sir doirasi kengaya boshlaydi. [2; 8 -17]. Shu o'rinda aytib o'tish kerak, bugungi o'zbek xalqining muhim bir qatlamini tashkil etadigan, kelib chiqishi asosan dashti qipchoqlik bo'lgan va ilmiy adabiyotda "ko'chmanchi o'zbeklar" yoki "Shayboniy o'zbeklari" deb ataladigan aholi guruhi O'rta Osiyoning markaziy qismlarida, xususan, Amudaryo – Sirdaryo oralig'i va unga tutash hududlarda yoyila boshlashi Temuriylar davlati (1370-1507) hukmronligidan so'ng, Shayboniylar davlati (1501-1601) hukmronligi davriga to'g'ri kelib, bungacha ushbu atama ostida bilingan aholi ko'proq mintaqaning shimoliy va shimoli-g'arbiy hududlarida yashar edilar. [3; 48-50].

Yuqorida aytib o'tilganidek, ular mintaqaning markaziy va janubiy hududlariga yoppasiga kirib kelishlaridan oldin asosan Volga – Uralbo'yining quyi havzalari – Orol dengizining shimolida chorvachilik bilan shug'ullanib, ko'chmanchi hayot kechirganlar. Shayboniylarning dastlab Janubiy Orolbo'yi (Quyi Amudaryo) – Xorazm, Zarafshon, Jizzax va Toshkent vohalariga, shuningdek, Farg'ona vodiysiga muvaffaqiyatli hujumlari natijasida Temuriylardan tortib olingan hududlarda "o'zbek" atamasi bilan ataladigan aholi guruhi muqim o'rinlasha boshlagan, ularning bir qismi boshqaruvchi toifa vakillari sifatida bilinar edi.

Demak, "o'zbek" atamasi Amudaryo – Sirdaryo oralig'i aholisining sezilarli bir qismini tashkil etib, asosan "turk", "turkiy" va "Chig'atoy turklari" va dashti qipchoqlik o'zbeklar uchun umumiy etnik nomga aylanishidan oldin bir qator etnosiyosiy va etnomadaniy jarayonlar yuz berdi. Ya'ni "o'zbek" atamasi asosan mintaqada keng yoyilgan "turk" etnonimining o'rnini olgungacha bir necha bosqichlarni bosib o'tgan bo'lib, bunda bir qator omillar o'ziga xos o'rin tutdi. Ulardan biri ushbu atamaning siyosiy-etnik mazmundan tobora etniklik kasb etishi bo'lsa, ikkinchisi esa boshlang'ichda asosan bir xil turmush tarzi (ko'chmanchi chorvador) va turkiy tilning qipchoq shevasiga asoslangan so'zlashuv tili bilan bog'liq edi[4; 25]. Ya'ni XVII – XVIII asrlarda Amudaryo – Sirdaryo oralig'i va unga tutash hududlardagi turkiy tilli aholining sezilarli bir qismini tashkil eta boshlagan va "o'zbek" deb ataladigan aholi guruhi ushbu hududlardagi qarluq lahjasida so'zlashuvchi aholidan birmuncha farqli holda turkiy tilning qipchoq lahjasida so'zlashib, ularning turmush tarzida chorvachilik ustunlik qilar va ular ko'pincha uchala o'zbek xonligining harbiy kuchini tashkil etar edilar. Navbatdagi bosqichda esa O'rta Osiyodagi turkiy aholining sezilarli qismi ushbu atama atrofida birika boshlagani bilinadi.

Ch. Valixanov qirg'iz urug'lari to'g'risida ham keng to'xtalgan bo'lib, qirg'izlarning sezilarli bir qismi Farg'ona vodiysida anchadan beri yashab kelayotganligi, ular orasida "saribag'ish", "qipchoq" va hokazo kabi urug'larning qirg'iz ekanligiga e'tibor qaratadi. Uning yozishicha, ushbu qirg'iz urug'lari allaqachon mahalliylashib ketgan va ularning urf-odati, madaniyati vodiya aholisi bilan umumiy o'xshashlikka ega. [5; 191-193.]

Ch. Valixanov XIX asr boshlarida o'zbek urug'lari tarqalgan hududlar haqida yozar ekan, ularning ittifoqi qozoq urug'lariga qaraganda ancha keng ekaniga urg'u beradi va quyidagicha urug'larni keltirib o'tadi: "Turkistonlik o'zbeklar ... Buxoro amirligida: qo'ng'irot – Qarshida, mang'it – Buxoroda, xitoy – Yor-Qo'rg'onda, qipchoq – Taliqonda, nayman – Ziyovuddinda, jaloyir – Payshanbada, sari (saroy) va yobu – Qarshida, sari-xitoy – (Katta)-Qo'rg'onda, diaxli (tuyoqli), ming, mitan, bahrin, burqut, qatag'on, chandir, qora-qalpoq va boshqalar. Buxoro (amirligi)dagu urug'lardan: yuz – Qo'qonda, laqay va yuz – Hisorda, qo'ng'irot – Boysun hamda Urganch va Xivada, durman – Qabodiyonda, qatag'on – Qunduzda, mo'ytan – Kumushda, kanaz (kenagas) = Aybak va Toshkentda, qipchoq – Bolor (Badaxshon – Hindikush)da, Xiva va Qo'qonda, yobu – Bolorda". [6; 154]

Ushbu ma'lumotdan ko'rinadiki, Ch. Valixanov 92 ta urug'dan iborat o'zbek urug'lari orasidan faqatgina yiriklarini keltirib o'tgan. Ayniqsa, u Farg'ona vodiysi o'zbeklari haqida so'z yuritganda asosan "qipchoq"larni tilga olgani ko'zga tashlanadi. Aslida esa o'sha kezlarda vodiya "kenagas", "bahrin", "jaloyir", "ming", "turk" va hokazo kabi o'zbek urug'lari yashaganligini hozirgi kungacha saqlanib qolgan etnotoponimlar ko'rsatib turibdi.

So'nggi o'rta asrlarga tegishli fors, turkiy va rus tilli asarlarning bir qanchasida Qo'qon xonligidagi urug'lar haqida so'z borganda ko'pincha vodiya qipchoq urug'iga to'xtalib o'tiladi. Bu esa bir tomondan ushbu urug' vakillarining vodiya aholisi orasida son jihatdan ancha ko'p bo'lgani bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan esa ularning Qo'qon xonligi siyosiy hayotida faol qatnashganidan darak beradi. Shuningdek, Ch. Valixanovning ma'lumotlari orasida o'zbeklarning "yuz" urug'i to'g'risida bir necha bor eslatib o'tilishi ushbu urug' vakillarining ham son bo'yicha ancha ko'p, ham siyosiy salmoqqa ega urug' bo'lganini ko'rsatadi.

Aslida bunday nufuzga "ming" urug'i vakillari loyiq bo'lishlari kutilsa-da, ulardan ko'ra ko'proq "qipchoq" va "yuz"lar haqida ma'lumotlar uchrashi o'z izohini talab qiladi. Ma'lumki, Qo'qon xonlari "ming" urug'iga mansub bo'lishgan. Chamasi, ming urug'i vakillari ko'proq harbiy vazifalardan ko'ra ko'proq ma'muriy ishlarda mas'ul bo'lishgan. Boshqa tomondan esa "yuz"lar "ming"lar bilan ittifoqchi va qarindosh urug' bo'lgani tufayli Qo'qon xonligida ularning siyosiy va harbiy faolligi oshgan bo'lishi mumkin.

So'nggi o'rta asrlarda Farg'ona vodiysi aholisining sezilarli bir qismini Sharqiy turkistonliklar – qoshg'arlik, xo'tanliklardan, ya'ni uyg'urlar tashkil etgan. Ularning XVIII – XIX asrlarda bir necha bor vodiya ko'chib kelganliklari haqida yozma manbalarda ko'plab ma'lumotlar uchraydi.[7;181]. Jumladan, Ch. Valixanov XIX asrning ilk o'n yilliklarida Xitoyning Sharqiy Turkistonga bosqini natijasida o'n minglab aholining Qo'qon xonligining ichki hududlariga ko'chib o'tganini yozadi.

Ushbu aholining bir qismi Farg'ona vodiysining asosan Namangan, Shahrixon kabi shaharlarida joylashgan bo'lsa, sezilarli bir qismi esa Sirdaryo daryosi qirg'oqlaridagi kam o'zlashtirilgan yerlarida o'zlarining o'nlab qishloqlarini barpo etadilar.

Sharqiy turkistonlik aholi vodiyning mahalliy aholisi orasida "qashqarlik" degan atama ostida bilinsa-da, ularga nisbatan alohida bir elat sifatida qaralmaydi. Chunki "qashqarlik"lar til

jihatidan vodiy o'zbeklarining so'zlashuv tilidan uncha katta farq qilmagan bo'lib, muayyan bir sheva darajasidagi tafovutlar ko'zga tashlangan. Ularning shevasi ayniqsa Namangan shahri va atrofidagi ayrim aholi maskanlari aholisining tiliga ancha keng ta'sir qilgani kuzatiladi.

Qashqarliklarning bir qismi Sharqiy Turkistonning turkiy tilda so'zlashuvchi qadimdan o'troq, hunarmand aholi tashkil etgan bo'lsa, yana bir qismini esa turli davrlarda asosan tijorat bilan shug'ullanish maqsadida Sharqiy Turkistonga borib qolgan mahalliy tashkil etgan. Ular Qoshg'ar tomonlarda umumiy nom bilan "andijonlik" deb yuritilsa, Farg'ona vodiysiga qayta ko'chib kelganlarida "qashqarlik" deb atala boshlagan hollar ham uchragan.

So'nggi o'rta asrlarda Farg'ona vodiysiga faqatgina sharqdan yoki janubdan emas, balki shimoli-g'arb va janubi-g'arbdan ham sezilarli darajada aholi guruhlarining ko'chib kelishlari kuzatiladi. Ayniqsa, Sirdaryoning o'rta va quyi qirg'oqlarida – Yassi (Turkiston) shahri atroflaridan qoraqalpoq elati vakillarining kelib joylashuvi yuz beradi. Ular asosan 1720-yillarda jung'or (qalmoq)larning bosqinlari natijasida, keyinroq esa qozoq xoni Abulxayrning bosimlari ostida turli hududlarga – Quyi Amudaryo, Zarafshon va Toshkent vohalariga ko'chib otgan bo'lib, Toshkent vohasi orqali Farg'ona vodiysiga ko'chgan qoraqalpoqlar ham ancha miqdorni tashkil etgan.

Ular vodiya nisbatan kam o'zlashtirilgan Sirdaryo qirg'og'idagi to'qay yerlarga joylashib, bu yerlarda o'zlarining o'nlab qishloq va ovullariga asos solishgan. Ularning qishloqlari ko'pincha Qoraqalpoq deb atalgan bo'lsa-da, ayrim aholi maskanlari qoraqalpoqlarning biror urug'i nomi bilan atalgani ham ko'zga tashlanadi.

Aytib o'tilganidek, qoraqalpoqlarning o'z tarixiy yurtlaridan biri Turkiston – Qorator oralig'idagi hududlardan O'rta Osiyoning ichki hududlari – Toshkent, Farg'ona, Zarafshon vohalariga ko'chishlari jung'or-qalmoqlar va qozoqlar siquvi ostida yuz bergan. 1723 yilda jung'or hukmdori Sevan Rabdan boshchiligidagi hujumlardan so'ng turli hududlarga – Quyi Amudaryo havzalari, Ural (Yoyiq) va Emba daryolari oralig'iga va Zarafshon vohasiga ko'char ekan, o'zlarining ichki etnik tarkibini yaxshi bilishgan.

Masalan, 1758 yilda Sirdaryoning yuqori oqimi Farg'ona vodiysiga, bir qismi esa Xovos tumani (Sirdaryo viloyati)ga kelib o'rnashar ekan, boshlang'ichda o'z urug' tarmoqlanishini saqlab qolganlar. [8; 105] Muhammad Vafo Karmanagiy o'zining "Tarixi Rahimxoniy" asarida 1754 yili 6000 nafarga yaqin Xovosga kelgani, keyinchalik ularning Buxoro fuqaroligini qabul qilib, Samarqand yaqinidagi Konigil mavzesiga o'rnashganini yozadi.[9;106] Farg'ona vodiysidagi qoraqalpoqlar Farg'ona va Namangan viloyatlarida o'zlarining bir necha qishloqlariga ega bo'lib, ko'proq Sirdaryo daryosi qirg'oqlarida o'rnashgan va yillar o'tib o'zlarini o'zbeklarning bir bo'limi deb hisoblay boshlaganlar. Shu o'rinda aytib o'tish kerak, vodiydagi o'zbek-qoraqalpoqlar o'zlarining ichki urug' nomlarini deyarli bilishmaydi.

Xullas, so'nggi o'rta asrlarda Farg'ona vodiysida yuz bergan tarixiy jarayonlarga o'rta va so'nggi o'rta asrlarda yuz bergan voqeliklar asosida qarab chiqish shuni ko'rsatadiki, bu davrlarga kelib vodiy aholisining etnik tarkibida sezilarli darajada o'zgarishlar bo'lib o'tadi.

Birinchi, o'rta asrlarda vodiyni turkiy va forsiy tilli mahalliy aholisi orasiga bir necha yo'nalishlardan migratsiyalar yuz berib, shimoli va shimoli sharqdan, xususan, Yettisuv va Sharqiy Turkistondan asosan turkiy va turk-mo'g'ul urug'lari ko'chib kelib, o'zlarining bir qator qishloqlariga asos slogan bo'lsalar, so'ng o'rta asrlarga kelganda bu jarayon Sharqiy Turkistondan, asosan Qoshg'ar, Yorkand va Xo'tan vohalaridan "qashqarlik"larning ko'chib kelishlari misolida kuzatiladi. Yettisuv o'lkasidan, ayniqsa, Chu va Talas daryolari havzalaridan

esa o'nlab qirg'iz urug'larining ham Shimoliy Farg'onaga — Koson va Namangan shaharlari atroflariga, ham Sharqiy Farg'onaga – O'sh va O'zgand tegralariga hamda Janubiy Farg'onaga – So'x, Isfara, Botken atroflariga kelib joylashuvlari keng tus oladi.

Bu davrda Farg'ona vodiysining janubiy yo'nalishida esa Qo'qon xonligining harbiy maqsadlari ta'sirida "tog'lik tojiklar" – Pomir-Badaxshon va Qorategin aholisining bir qismi ko'chib kelishadi. Ular Farg'ona vodiysining qadimiy mahalliy aholilaridan biri bo'lmish fors-tojik tilli aholi salmog'i oshishiga o'z ulushlarini qo'shadilar. Shuningdek, vodiya tojik aholi soni ortishida Xo'jand va O'ratepa atrofining Qo'qon xonligi qo'l ostiga o'tishi ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Farg'ona vodiysining janubi-g'arbiy yo'nalishidagi ushbu tarixiy viloyatlar atrofida yashaydigan ko'plab o'zbek va tojik tilli aholi orasidan xonlikka xizmat qiluvchi askarlar olinishi va ularning yillar o'tib Farg'ona vodiysida yashab qolishlari natijasida yangi-yangi aholi maskanlari tashkil topadi.

Xuddi shu yo'nalishda – Xo'jand va O'ratepa atroflarida ko'chmanchi hayot kechirgan "yuz", "ming" kabi o'zbek urug'larining xonlik harbiy kuchini tashkil etishlari va ushbu urug' vakillarining vodiya o'z maskanlarini barpo etishlariga olib kelgan omillardan biri sifatida ko'zga tashlanadi.

Farg'ona vodiysiga shimoli-g'arbdan bo'lgan migratsiya jarayonlarida Toshkent vohasi va Sirdaryoning o'rta oqimi aholisining o'rni bo'lakcha bo'ladi. Toshkent vohasining tog'lik qismi aholisi – "qurama" deb atalovchi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi o'zbeklar vodiyning vohaga tutash hududlari aholisi bilan etnomadaniy aloqalarni saqlab kelgan bo'lsalar, XVIII – XIX asrlar oralig'ida O'rta Sirdaryo hududlaridan qoraqalpoqlarning kirib kelishi va o'zlarining o'nlab maskanlariga asos solishlari ko'zga tashlanadi.

Bundan ko'rinadiki, XIX asrning ikkinchi choragida Farg'ona vodiysida turli urug'larga bo'linadigan ko'chmanchi o'zbeklar ham yashagan va ular o'zini "o'zbek", o'zbekning "falonchi urug'i" deb ataganlar. Chamasi, o'sha kezlarda vodiya aholisining bir qismi, xususan, o'troq dehqon va hunarmand, umuman olganda shahar aholisi o'zining milliy mansubligini yo diniy mansublikdan kelib chiqib "musulmon" deb aytish bilan birga, "falon yerlik" deb aytish an'anasi bo'lgan. Biroq Ch. Valixanov Qo'qon xonligi aholisi haqida so'z borganda ko'pincha ularga nisbatan "o'zbek" atamasini qo'llagani bu davrda aholi orasida etnik mansublik, o'zlik ma'nosida "o'zbek" atamasi keng tarqalganidan darak beradi. Bu esa ayrim tadqiqotchilar yozganidek "o'zbek atamasi etnik ma'noda faqat Buxoro amirligida qo'llanilgan, qolgan hududlarda ko'pincha "sart" yoki biror shaharga mansublik ustunlik qilgan" degan qarashlarning biryoqlama ekanini ko'rsatadi.

Qisqasi bu kabi migratsiya jarayonlari Farg'ona vodiysi etnik tarkibida sezilarli o'zgarishlar yasab, vodiya bir necha o'nlab etnotoponimlar shakllanishiga olib keladi. Ular orasida turkiy etnonimlar birmuncha ko'p bo'lib, bir qismi Chig'atoy ulusi va Temuriylar davri mahsuli, bir qismi esa Shayaboniylar va Qo'qon xonligi davridagi etnosiyosiy jarayoning mahsulidir.

Адабиётлар/Литература/References:

1. <http://akademiyafvv.uz/post/gfhnmgjg>
2. Ахмедов Б.А. Государство кочевых узбеков. – М., 1965. – С. 8-17.
3. Bregel Y. An historical atlas of Central Asia. Handbook of Oriental studies. Section eight Central Asia. – Leiden – Boston, 2003. – P. 48-50.

4. Шаниязов К.Ш. К этнической истории узбекского народа (Историко-этнографическое исследование на материалах кипчакского компонента). – Ташкент: Фан, 1974.
5. Валиханов Ч.Ч. Собрание сочинений в пяти томах. Том III. Составитель В. А. Моисеев. – Алма-Ата, 1985. – С. 191-193.
6. Валиханов Ч.Ч. Собрание сочинений в пяти томах. Том II. – Алма-Ата, 1985. – С. 154.
7. Валиханов Ч.Ч. Собрание сочинений в пяти томах. Том III. Составитель В. А. Моисеев. – Алма-Ата, 1985. – С. 181.
8. Бегалиев Н.Б., Туробов А.М. Самарқанд топонимияси. – Самарқанд, 2015. – Б. 105.
9. Бегалиев Н.Б., Туробов А.М. Самарқанд топонимияси. – Б. 106.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 4 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).